



XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING QARORI

2024 - yil 22 - fevral

VI-64-12-11-154-K/24

Buvayda tuman hokimligi

Buvayda tumanidagi ayrim geografik obyektlarning nomlarini qonun hujjatlari talablariga muvofiq o'zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reyestriga kiritish to'g'risida

“Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonunining 16-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob'yektlarning nomlarini tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Buvayda tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha hokim maslahatchisi O.Asqarovning tumandagi ayrim geografik obyektlari nomlarini o'zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reyestriga kiritish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq o'zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reyestriga kiritilayotgan geografik obyektlar nomlari 1-ilovaga va Buvayda tumanida Davlat reyestri bazasida mavjud bo'lmagan istirohat bog'i nomi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan o'z faoliyatini amalga oshirayotganda geografik obyektlarning ro'yxatdan o'tkazilgan nomlaridan foydalanishi belgilansin.

4. Tuman hokimligi matbuot kotibi (A.Shokirov)ga mazkur Kengash qarorini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur Kengash qaroridan Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga yuborilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi (A.Maxsudov) zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Odiljonovich I. B.

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2024-yil 22-fevraldagi
VI-64-12-11-154-K/24-son
qaroriga
1-ilova

Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq o'zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reyestriga kiritilayotgan geografik obyektlar

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o'rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining hulosasi
1.	Ziyoratgoh	Poshshopirim MFY	Nomsiz	Muhammad Jarir	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Ziyoratgoh	Buvimazor MFY	Nomsiz	Bibi Ubaydo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Ziyoratgoh	Cho'taka MFY	Nomsiz	Bandikushod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Ziyoratgoh	Arab MFY	Nomsiz	Sulton Bayoz Batri	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	Ziyoratgoh	Yangiqishloq MFY	Nomsiz	So'fiazizlar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6.	Qabriston	Poshshopirim MFY	Nomsiz	Poshshopirim	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	Qabriston	Hakimto'ra MFY	Nomsiz	Hakimto'ra	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8.	Qabriston	Urganji MFY	Nomsiz	Bobosamosiy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9.	Qabriston	Cho'taka MFY	Nomsiz	Bandikushod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

10.	Qabriston	Yangiqishloq MFY	Nomsiz	So`fi azizlar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11.	Qabriston	Elobod MFY	Nomsiz	Tolmazor Buva	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12.	Qabriston	Buvimazor MFY	Nomsiz	Bibi Ubaydo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10.	Qabriston	Beshterak MFY	Nomsiz	Bexishdan darak	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11	Qabriston	Xo`jaobod MFY	Nomsiz	Qayrog`och	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12.	Qabriston	Nayman MFY	Nomsiz	G`oyib ota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13.	Qabriston	Ing`irchoq MFY	Nomsiz	Galdirbuvo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14.	Qabriston	Buyuk ipak yo`li MFY	Nomsiz	Tepa buvo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15.	Qabriston	O`rta qong`iron MFY	Nomsiz	Shaylar buvo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16.	Qabriston	Xo`jaobod MFY	Nomsiz	G`oyibderlar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
17.	Qabriston	Tepalik MFY	Nomsiz	Oqqo`rg`on buvo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
18.	Qabriston	Arab MFY	Nomsiz	Bostonbuvo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
19.	Qabriston	Maslahat MFY	Nomsiz	Maslahat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2024-yil 22-fevraldagi
VI-64-12-11-154-K/24-son
qaroriga
2-ilova

**Buvayda tumanida Davlat reystri bazasida mavjud bo'lmagan
istirohat bog`i nomi to'g'risida**

MA'LUMOT

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o'rni MFY nomi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh
1	Istirohat bog`i	Qoratepa MFY	Yoshlar bog`i	Yoshlar bog`i	